

XITOIY ADABIYOTIDA QISSA JANRINING  
SHAKLLANISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7351957>

Aminov Umid

Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Nasirova S.A.

**Annotation.** In this article, we have tried to briefly describe the formation, development, and contribution of Chinese authors in the genre of the modern era, the genre of and the genesis of development in Uzbek literature and Chinese literature.

**Key words.** Novelette. 中篇小说. cultural revolution.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xitoy yangi davr adabiyotida qissaning shakllanishi, uning rivojlanishi, qissa janrida ijod qilgan yozuvchilar ijodi, o'zbek adabiyotida hamda xitoy adabiyotida qissaning o'xshashligi, hamda rivojlanish genezisini qisqacha yoritishga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar.** Qissa, 中篇小说, Madaniy inqilob, so'l yozuvchilar jamiyati adiblari, Syao Hong

Badiiy adabiyotning epik janr turlaridan biri bu qissa janridir. O'zbek adabiyoti tarixida rivoyat usulida nasr yoki nazmda yozilgan tarixiy-afsonaviy asar qissa deb yuritilgan.

Qissa odatda, bir va bir necha shaxslar taqdiriga oid turli voqealarni o'ziga asos qilib olish bilan epik turning hikoya, hajmi va mazmunining nisbatan cheklanganligi bilan romandan farq qiladi. Qissa hayot murakkabliklarini hikoyaga nisbatan kengroq harakter hamda voqelik ko'lamini romanga qaraganda kamroq qamrab oladi. Qissada u yoki bu shaxs hayotining ma'lum bir davri xronikal tarzda bayon qilinadi.

Qissada lirizm hikoya va romandagidan kuchliroq bo'lishi mumkin. Roman kabi qissaning ham avtobiografik, tarixiy, fantastik turlari bor<sup>1</sup>

Qissa janri dastlab xalq og'zaki ijodida shakllangan. Qahramon hayoti va sarguzashtlarini qiziqarli hikoya qiluvchi asarlar elda juda mashhur bo'lgan. Avvaliga qissalar ham ijro qilingan, keyinchalik ularning bir qismi iqtidorli kishilar tomonidan adabiy qayta ishlanib, kitobot qilingan: qissalar xalq kitoblari sifatida yashay boshlagan

XX asrga kelib o'zbek adabiyotida yangi tipdagi qissa shakllandi: Hamzaning “milliy roman” unvoni bilan chop qilingan “Yangi saodat”i, Cho'lpon janrini “xayoliy hikoya” deb belgilangan “Do'xtur Muhammadiyor”- ikkisi ham zamonaviy qissaning adabiyotimizdagi ilk namunalari sanalishi mumkin. Xullas, bu asarlarning barini umumlashtiradigan asosiy jihat- diqqat markazida qahramon turishi. Shu xususiyati bois “qissa” so'zi ilgari hamma vaqt qahramon ismi bilan birga qo'llangan, “qissa” so'zi qahramon ismi bilan assotsiatsiyalangan.<sup>2</sup>

O'zbek adabiyotida qissa janrida poetic qurilishi qahramonga qaratilgani bilan belgilnadi. Qissa syujetidagi barcha voqealar qahramon atrofida uyushtiriladi, ya'ni syujet romanniki kabi ko'p

<sup>1</sup> Abrorov A, O'zbek povesti, T;1973

<sup>2</sup> Quronov. D Adabiyot nazariyasi asoslari, T;2018

emas, ko'p tarmoqli emas shunisi bilan romandan ajralib turadi. shuni ta'kidlash lozimki o'z vaqtida Belinskiy “povest ham romanning o'zginasi, faqat hajmi kichikroq”<sup>3</sup> degan.

Xitoy adabiyotida 中篇小说(zhong pian xiaoshuo) o'rta hikoya, qissa janriga qisman hajmi jihatidan o'xshash, quyida 中篇小说(zhong pian xiaoshuo)ga ta'rif beriladi. 中篇小说(zhong pian xiaoshuo) shakli, o'lchami, uzunligi, personajlar soni va murakkab syujetlari 长篇小说(chang pian xiao shuo) uzun hikoya(dunyo adabiyotiga roman deb tarjima qilinadi)dan kam 短篇小说(duan pian xiaoshuo) qisqa hikoya (dunyo adabiyotiga hikoya deb tarjima qilinadi)dan esa ko'pligi bilan farqlanadi. 中篇小说(zhong pian xiaoshuo) o'rta hikoya faqat hayotning ma'lum bir davrini yoki ma'lum bir voqealirini tasvirlaydi. Ijtimoiy hayotning ba'zi jihatlarini aks ettiradi, syujet tugallangan, yechim nisbatan soda, qarama-qarshiliklar, kurasshlar roman kabi murakkab emas personajlar soni ham kam. Odatda, 中篇小说(zhong pian xiaoshuo) o'rta hikoyada iyerogliflar miqdori o'ttizmingdan yuzming atrofida bo'ladi. Iyerogliflarning ya'ni xitoy belgilarining soni yagona omil bo'libgina qolmay, balki 长(uzun), 中(o'rta) va 短(qisqa) hikoyalarni ajratib turadigan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Odatda, Xitoy adabiyotida mingdan yigirmaming iyeroglif (xitoy tili belgisi) bo'lgan hikoyalarni 短篇小说(duan pian xiaoshuo) qisqa hikoya, o'ttizmingdan yuzminggacha iyeroglif (xitoy tili belgisi) bo'lgan hikoyalarni 中篇小说(zhong pian xiaoshuo) o'rta hikoya, yuzmingdan ortiq iyeroglifdan qo'llanilgan hikoyalarni 长篇小说(chang pian xiao shuo) uzun hikoya deb atashadi. aslida esa ularning o'rtasidagi tafovut ish hajmi va yozuvchining ishchanlik qobilyati, yozish mahorati bilan ham bog'liq bo'ladi. 中篇小说(zhong pian xiaoshuo) o'rta hikoya personajlar miqdori 长(uzun) va 短(qisqa) o'rtasida turadi.

Yildan yilga bunday 中篇小说(zhong pian xiaoshuo) o'rta hikoyalar ya'ni qissalar yangi davr adabiyotida o'zgacha tus ola boshladi. “17-yil” qissalariga taqqoslaganida real hodisalar ko'p, syujet boy bo'la boshladi. Xito Xalq Respublikasi tashkil topganidan so'ng qissalar yozilishida muvaffaqiyatli natijalar bera boshladi. 1976-dan 2019-ga qadar o'nmingga yaqin qissalar qayd qilingan., tarixda misli ko'rilmagan, fenomenal, dunyo miqyosida ham katta bo'lmasada o'z o'rniga ega bo'ldi. Xitoy yozuvchilari assotsiatsiyasi tomonidan esa iqtidorli qissalar uchun milliy mukofot ishlab chiqarilgan. Yangi davr adabiyotida qissalar yangi mazmun va mavzular ega bo'ldi.

Madaniy inqilobdan so'ng yangi janr rivojlana boshladi. Bunda tarixiy hayotni aks ettiradigan qissalar yozila boshladi. Misol qilib, 维熙 “大墙下的红玉兰”(Vey Sining “Xitoy devori ostidagi magnoliya”), 冯骥 “啊” 张一“犯人离铜钟的故事”(Fen Jining “Oh”) qissalarida ijtimoiy hayotni yaqqol targ'ib qiladilar. “Madaniy inqilob” “chandiqlariga alohida urg'u berib o'tishadi va uning sabablarini izlashadi. Adib mazkur qissasida 张一“犯人离铜钟的故事”(Djang Yining “Maxbus Li Tong Zhongning hikoyalari”) fojialari aks ettirilgan, 1958-yildagi dehqonlarning og'ir turmush tarzi yaqqol aks ettirilgan, insonlarga qaytadan o'tmish tarixini baholash va anglab yetishga yordam beradi. 鲁彦周“天云山传奇”(Lu Yang Jouning “Tyan Yun haqida afsona”), 注浙成“土壤”王蒙“布礼”(Dju Djechengning “Tuproq”), 张骧亮“绿化树”(Djang syanlyangning “Yashil darax”), 堪容“人到中年”(Kan Rongning “O'rta yoshgacha bo'lgan insonlar”) bu kabi qissalar jamiyatga kuchli zarba bilan kirib kelgan “so'l yozuvchilar jamiyati” yo bo'lmasa “madaniy inqilob” kengayishidan dalolat bergan. Bu yozuvchilarning aksariyati har xil turmush tarzini olib borganlar, ayrimlari qatag'on va surgun qilingan. Boshqalari esa jamiyatda jar yoqasiga ketishga tayyor bo'lgan, qolganlari esa moddiy taraflama nochor, siyosiy tenghuquqsizlik hamda inson qadr-qimmatini yo'q bo'lgan bir vaqtda dunyo yuziga shunday qissalar kela boshladi. Ushbu qissalarda yozuvchilarning o'sha davrdagi og'ir hayot tarzi va qiyinchiliklari

<sup>3</sup> Белинский В.Г. Полное собрание сочинений. Т.5 М.,1954 –С.42

yoritib berilgan. 王蒙 “蝴蝶” ( Van Men “Kapalak”) va 韦君宜 “洗礼 (Vey Tzu I “Cho’qintirish”) qissalarida nafaqat ishchilarning fojiali taqdiri, “so’l yozuvchilar jamiyati” tomonidan nazorat ostida bo’lgan, ishchi qatlamga hukumatga qarshi chiqishni, balki o’zlariga nisbatan mas’uliyatli, talabchan bo’lishni da’vat etishgan. Mazkur qissalar hozirda madaniy inqilobni o’rganish va tadqiqot qilishda juda katta ahamiyatga ega. Hatto, “so’l yozuvchilar jamiyati” va “madaniy inqilob” ochiq-oydin tanqid qilishga yo’l qo’yib berilgan. Bu kabi qissalarning paydo bo’lishi hayotni isloh qilishni, yozuvchilarning real hayotini qaytadan o’rganishni, zamonga yangicha nazar bilan qarashni va yangidan yangi sohalarni paydo bo’lishida asos bo’lib kelmoqda.

Qissa janri bora-bora Xitoy yangi davr adabiyotida o’z o’rniga ega boshladi. XX asr boshlarida qissa janrida ijod qilgan yozuvchi-adiblarning soni ko’paya boshladi. Bu davrda yashab, ijod qilgan, Xitoy adabiyotiga ulkan hissasini qo’shgan “kuchli ayol to’rtlik” yozuvchilaridan biri bo’lgan Syao Hong ham shu qatordandir.

Syao Hong asarlarida realistik ruh yaqqol ko’zga tashlanib turadi. Adibaning birinchi 弃儿 “Tsi Er” (“Tashlandiq”) qissasi avtobiografik ruhda bo’lib, yosh qizning yolg’izligi, taqdir taqozosi bilan hayotning o’ngir-cho’ngirliklaridan chiqqa olmaganligi ko’rsatilgan, qayg’uli va yorug’ kunlarsiz tasvirlangan bu qissa yozuvchining mustaqil hayotidan ilk lavhadir.

“生死场” (“Hayot o’lim maydoni”) qissasi 1935-yilning dekabr oyida nashr qilindi va qisqa muddat ichida Syao Hongga mashhurlik olib keldi. Yozuvchining bu qissasi realizmda yozilgan bo’lib, ikki qismdan tashkil topgan. Birinchi qismida dehqolarning bug’doy terish jarayonidagi og’ir hayot bo’lsa, ikkinchi qismida urush vaqtning qiyinchliklari, yapon okkupatsiyasi tasvirlanadi. Adiba asar voqealariga umuman aloqador bo’lmasada, “Hayot o’lim maydoni” qissasini yuqori mahorat bilan tasvirladiki, u tezda kitobxonlar qalbidan joy oldi. Shu tariqa Syao Hong o’z tushunchasidagi realizmni ko’rsatib berdi.

Xulosa o’rnida ta’kidlash lozimki, Xitoy adabiyotida qissa janri madaniy inqilobdan so’ng o’z o’rniga ega bo’ldi. Hozirda dunyo mavqei va obro’siga ega. Syao Hong yangi davr adabiyotida qissa janriga o’zgacha ruh bag’ishladi. Adiba bu janrda ijod qilmaganida, qissachilikda o’ziga xos tugallik keskin burilish paydo bo’lmagan bo’lar edi. Bir qancha muxlat to’xtab, rivojlanmagan janrga yozuvchi qaytadan hayot bag’ishladi va qissa janrini saqlab qolishga yordam berdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. С Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.
2. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In Resent Scientific Investigation (pp. 69-73).
3. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ*. 391 с (p. 361).
4. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
5. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
6. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.

7. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
8. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
9. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
10. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
11. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
12. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
13. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
14. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化, 87, 0
15. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. С. 187-188.
16. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ* 3,384,2019
17. СА Хашимова [О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ \(НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА\)](#). - *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 2022.